

**KELIN SALOMLARDA QAYNONA OBRAZI****Asaloy Azimovna Xudoyberdiyeva**

BuxDU filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

**Darmonoy Saidahmedovna O'rayeva**

Ilmiy rahbar, BuxDU filologiya fanlari doktori, professor

**ANNOTATSIYA**

O'zbek folklori va milliy marosimlarda nikoh to'yi katta ahamiyatga ega. Qadimda ham, hozirda ham birdek o'z o'rniga ega bo'lgan bu marosim o'z ichida ancha ko'p kichik marosimlarni qamrab oladi va ular orasida kelin salomlar e'tiborga sazovordir. Maqolada ayni kelin salomlardagi qaynona obrazi va uning xususiyatlari, unga berilgan o'zgacha ta'riflar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, to'y, marosim, kelin salom, qaynona, kelin, o'g'il, kuyov, parallellizm, dasturxon, ulug'lik, momo.

**ABSTRACT**

Wedding has high value among Uzbek folklore and its national ceremonies. Wedding has a great significance both in past and now; covers a lot of small rituals within itself, and among them the bridal greetings are noteworthy. The article reveals the role of the mother-in-law, her features in the greetings, special definitions given to her.

**Key words:** folklore, wedding, ceremony, bridal greeting, mother-in-law, son, bridegroom, parallelism, tablecloth, sanctity, grandmother.

O'zbek folklorida to'y marosimlari orasida nikoh to'yi eng yirik va e'tiborli marosim bo'lib hisoblanadi. Nikoh to'yidan keyin o'tkaziladigan marosimlar orasida "kelin salom" alohida o'ringa ega. O'zbek oilasida kelin olib kelish eng ko'p qaynonalar uchun faxrli va sevimli hodisadir. Ayni shu sababdan, kelin salomlarda qaynonalar o'zgacha ta'riflanadi:

Suv kechgani eringan,

Og'il tug'ib kerilgan,

Yor-u yor-u, chahor yor-u,

Qaynonasiga bir salom.

Ushbu kelin salomda qaynonaning ayni bolasining tug'ilganidanoq xursandchiligi va o'sha paytlardanoq kelin



qilishni orzu qilganligi ifodalangan. O`g`il farzandi dunyoga kelgandayoq to`ylar qilaman deb xursand bo`lgan onalar qaynonalikni qabul qilganda kerilib, faxrlanib turishi hammaga ayon.

Ko`zlari qora-ola,  
Og`zi bolli payola  
Qaynonasiga salom.

Yuqoridagi misralarda yashiringan ijobiy ma`no orqali qaynonaning sifatlari ochib berilgan. Uyiga kelin kelganda barcha yumushlardan qo`li bo`shab, kelinning qo`lidan “bir payola” choy ichib mehri jo`shgan qaynona qo`ni- qo`shnilarga “kelinim” deya maqtanadi. Bir tarafdin, kelinning qaynonasiga salomi paytida bu jumlaning aytish bilan unga “bolli payola”, ya`ni shirinso`zlik va muloyimlik bilan muomala qilish va shu orqali qaynonasining ko`ngliga yo`l topishiga ishora berilyapti.

Qaqrasidan qaragan,  
Zuvalasin sanagan,  
To`y uyining bekasi  
Qaynonasiga salom.

Bu matndan anglanadigan ma`no shuki, qaynonalar, ya`ni onalar to`yga ancha tayyorgarlik ko`rishadi. Xususan, kuyov tomon to`y berganligi sababdan ularda tashvishlar ko`proq bo`ladi. O`zbek oilasida to`y uchun maxsus nonlar yopilishi hammaga ma`lum. Bunday namunalarni o`tgan asrlardagi to`ylarda ko`proq ko`ramiz. Chunki u paytlarda to`y marosimida dasturxonga tortiladigan ne`matlar uyda ayollar tomonidan tayyorlangan. Boshqa tomondan, kelinning uyiga sovchilikka borilganda ham kuyovning onasi o`z qo`llari bilan tandirda patir va nonlar yopib olib borishi ma`nolari ifodasini ham ko`rish mumkin.

Oq saqichday eshilgan,  
Mahallada kerilgan.  
Yor-u yor-u, chahor yor-u,  
Qaynanasiga salom.

To`y boshlangan xonadonlarni hamma qutlaganda “-Endi sizga yengil bo`ladi, keliningiz yumushlaringizni qo`lingizdan oladi, endi bu uying qirolichasi bo`lasiz”, -deya unga havas qiladigan qo`ni-qo`shnilar, amma-xolalarning bu gaplaridan qaynonalar yanada g`ururlanishadi. Aytilgan yuqoridagi kelin salom ham buning yaqqol dalili bo`lib, unda eshilmok va kerilmok so`zlari bir-biriga parallel sifatida ishlatilgan. Bundan maqsad esa

qaynonaning ba`zi sifatlari oq saqichga o`xshatish va uning salbiy jihatlarini ochib berishdir.

Oppoq unning urvog`i,  
Dasturxonning qurog`i,  
Qaynonasiga bir salom,  
Assalom, kelin salom.

Qaynona oppoq un, dasturxon tushunchalari bilan bog`lanmaydi, dastur va sochiqlar oilada unga tegishli bo`lgani sababdan va keyin u bularni keliniga meros qilib qoldirishi nazarda tutilgan. Xuddi shu ma`no quyidagi kelin salomda ham o`z aksini topgan:

Tandirda pishgan patirday,  
Qozonda qotgan qatirday  
Qaynonasiga salom.

Bu kelin salomni ikki xil ma`noda tushunish mumkin: biri kelin kelgach butun ro`zg`orni unga topshirish va bu bilan oilani unga ishonish bo`lsa, ikkinchisi qaynonaning yillar davomida mashaqqatlar bilan “tandirda pishib” o`g`il o`stirgani va oilasi uchun kurashganligidir.

Ayrim kelin salomlarda esa qaynonaning go`zalligi va jozibadorligiga urg`u qaratiladi:

Yuzi qizil anorday,  
To`lib turgan qanorday,  
Qaynonasiga salom.

Bu kelin salom qaynonaning ko`nglini olish uchun va uning keliniga bo`lgan munosabatini shu orqali yaxshilash uchun ijobiy ma`noda qo`llangan.

Agar kelin qaynona bilan til topa olsa, ular sirdosh va yo`ldosh bo`la oladi. Bu esa kelinning shu oilada o`z o`rnini topishi uchun yaxshi xizmat qiladi. Quyidagi kelin salom buni isbotlaydi:

Uyga kirs sirdoshi,  
Yo`lga tushsa yo`ldoshi,  
Qaynonasiga salom.

Demak, xulosa qilinsa, kelin salomlarda qaynonaning ham ijobiy, ham salbiy xatti-harakatlari hamda turli xil xususiyatlari ifoda etiladi.

## REFERENCES

1. “O`zbek xalq og`zaki ijodi” , O. Safarov. Toshkent, 2010  
“Musiqqa” nashriyoti.



2. “O`zbek xalq og`zaki ijodi xrestomatiyasi”. T. Mirzayev, O. Safarov, D. O`rayeva. T., <Aloqachi>, 2008.
3. “Ipak yo`li afsonalari”. M. Jo`rayev. T., <Fan> nashriyoti, 1993.
4. “oppoq unning urvog`I”. M. Jo`rayev. Lesson press nashriyoti, 2021.
5. <https://maqollar.uz/>
6. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/2019-12-17-06-07-18>

